

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI
TA'MINLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI (GOSPITAL TA'LIM
KONTEKSTIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186216>

Alimov Dilmurod Duyshaboyevich

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrlil maktab" davlat ta'limi muassasasi
direktor o'rinbosari, tel: +998909173010, e-mail: mr.alimovdd@gmail.com*

Annotatsiya

Mazkur maqolada gospital ta'lim sharoitida integrativ yondashuv asosida ta'lim samaradorligini ta'minlash masalasi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim samaradorligi tushunchasi faqat akademik natijalar bilan cheklanmay, balki bolaning psixologik farovonligi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va rivojlanish dinamikasini qamrab oluvchi kompleks kategoriya sifatida talqin etiladi. Gospital ta'limning o'ziga xos sharoitlarida pedagogik jarayonning tibbiy cheklovlar, davolash rejimi va psixo-emotsional holat bilan uyg'unlashtirilishi zarurligi asoslab beriladi. Integrativ yondashuv pedagogik ta'sirlar bilan psixologik qo'llab-quvvatlashning yagona tizimda amalga oshirilishini ta'minlab, ta'limni psixologik reabilitatsiya vositasi sifatida namoyon etishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, multiditsiplinar hamkorlik gospital ta'lim samaradorligining muhim sharti sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Integrativ yondashuv, gospital ta'lim, ta'lim samaradorligi, pedagogik-psixologik omillar, emotsional barqarorlik, individual yondashuv, multiditsiplinar hamkorlik, ijtimoiy reintegratsiya.*

Аннотация: *В данной статье с педагогической и психологической точек зрения анализируется проблема обеспечения эффективности образования на основе интегративного подхода в условиях госпитального обучения. В исследовании понятие эффективности образования рассматривается не только в контексте академических результатов, но и как комплексная категория, охватывающая психологическое благополучие ребёнка, эмоциональную устойчивость, социальную адаптацию и динамику развития. Обоснована необходимость согласования педагогического процесса с медицинскими ограничениями, лечебным режимом и психоэмоциональным состоянием обучающихся в специфических условиях госпитального образования. Показано, что интегративный подход обеспечивает реализацию педагогического воздействия и психологической поддержки в рамках единой системы, вследствие чего образование приобретает характер средства психологической реабилитации. Также междисциплинарное сотрудничество рассматривается как одно из ключевых условий эффективности госпитального образования.*

Ключевые слова: *интегративный подход, госпитальное образование, эффективность образования, педагогико-психологические факторы, эмоциональная устойчивость, индивидуальный подход, междисциплинарное сотрудничество, социальная реинтеграция.*

Abstract: *This article analyzes the issue of ensuring educational effectiveness through an integrative approach in the context of hospital education from pedagogical and psychological*

perspectives. Educational effectiveness is interpreted not only in terms of academic outcomes, but also as a comprehensive category encompassing the child's psychological well-being, emotional stability, social adaptation, and developmental dynamics. The study substantiates the necessity of aligning the educational process with medical limitations, treatment regimens, and psycho-emotional conditions inherent in hospital education settings. It is demonstrated that the integrative approach enables the implementation of pedagogical influence and psychological support within a unified system, thereby positioning education as a means of psychological rehabilitation. In addition, interdisciplinary collaboration is analyzed as a crucial prerequisite for the effectiveness of hospital education.

Keywords: *integrative approach, hospital education, educational effectiveness, pedagogical and psychological factors, emotional stability, individualized approach, interdisciplinary collaboration, social reintegration.*

So'nggi yillarda ta'lim samaradorligi tushunchasi faqat o'quv natijalari yoki akademik ko'rsatkichlar bilan cheklanmay, balki shaxsning psixologik farovonligi, ijtimoiy moslashuvi va rivojlanish dinamikasini ham qamrab oluvchi kompleks kategoriya sifatida talqin qilinmoqda [1;3]. Mazkur tendensiya ayniqsa sog'lig'i bilan bog'liq sabablar tufayli uzoq muddat tibbiyot muassasalarida davolanayotgan bolalar ta'limi kontekstida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Gospital ta'lim bolaning uzoq muddat davolanish davrida ham ta'lim olish huquqini ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus pedagogik faoliyat bo'lib, u nafaqat bilimlarni uzatish, balki bolaning psixologik holatini barqarorlashtirish, o'ziga bo'lgan ishonchini saqlash va ijtimoiy izolyatsiyaning oldini olish vazifalarini ham bajaradi [2].

Shu bois mazkur maqolaning asosiy maqsadi gospital ta'lim kontekstida integrativ yondashuv asosida ta'lim samaradorligini ta'minlovchi pedagogik-psixologik omillarni chuqur ilmiy tahlil qilish va ularning o'zaro bog'liqligini nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Integrativ yondashuv asosida ta'lim samaradorligini ta'minlashning pedagogik-psixologik omillari – bu ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etishga xizmat qiluvchi, pedagogik ta'sirlar bilan psixologik qo'llab-quvvatlashning o'zaro uyg'unlashgan majmuasidir [3].

Gospital ta'lim kontekstida integrativ yondashuv asosida ta'lim samaradorligini ta'minlashning pedagogik-psixologik omillari **oddiy maktab ta'limidan tubdan farqli, yanada murakkab va ko'p qatlamli tizim** sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda integrativ yondashuv faqat fanlar yoki metodlar uyg'unligi bilan cheklanmaydi, balki **ta'lim, tibbiyot, psixologik holat va ijtimoiy moslashuvning yagona tizimda boshqarilishini** anglatadi [4].

Gospital ta'limda ta'lim samaradorligi, avvalo, bolaning sog'liq holati bilan bevosita bog'liq bo'lgan sharoitlarda tashkil etiladi. Shu sababli pedagogik jarayon **tibbiy cheklovlar, davolash rejimi va psixo-emotsional holat** bilan muvofiqlashtiriladi. Integrativ yondashuv bu yerda pedagogik ta'sirni psixologik qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashtirib, bolaning nafaqat bilim olishini, balki ruhiy barqarorligini saqlashni ham asosiy maqsad sifatida belgilaydi [5].

Pedagogik jihatdan gospital ta'limda integrativ yondashuv ta'lim mazmunining moslashuvchanligini talab etadi. O'quv materialini qisqa, moslashtirilgan va individual shaklda beriladi, baholash esa nazorat qilishdan ko'ra **rivojlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi** xarakter kasb etadi [6]. Bu yondashuv bolaning charchashi, diqqatning tez so'nishi va sog'liq bilan bog'liq uzilishlarni hisobga olish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining uzluksizligi saqlanib, o'quvchi o'zini ta'lim tizimidan uzilib qolgan subyekt sifatida emas, balki uning faol ishtirokchisi sifatida his etadi.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Psixologik nuqtayi nazardan esa gospital ta'limda integrativ yondashuvning markazida **emotsional barqarorlik va motivatsiyani** saqlash turadi. Uzoq muddatli davolanish sharoitida bolalarda xavotir, qo'rquv, ishonchsizlik va ijtimoiy chetlashuv hissi kuchayadi [5;6]. Shu bois pedagogik faoliyat psixologik qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda olib borilib, o'quv jarayoni bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, muvaffaqiyat hissini uyg'otish va kelajakdagi ta'lim istiqboliga ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holatda ta'limning o'zi psixologik reabilitatsiya vositasiga aylanadi.

Gospital ta'lim sharoitida integrativ yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri **turli soha mutaxassislarining** uzviy hamkorligidir. Pedagog, psixolog, shifokor va ota-ona o'rtasidagi uzviy hamkorlik ta'lim samaradorligining ajralmas sharti hisoblanadi. Pedagogik qarorlar tibbiy tavsiyalar va psixologik diagnostika natijalari bilan uyg'un holda qabul qilinadi. Aynan shu integratsiya gospital ta'limni oddiy ananaviy o'qitishdan farqlab, uni rivojlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi tizimga aylantiradi.

Xalqaro konseptual yondashuvlarda ham gospital ta'limning aynan shu integrativ mohiyati alohida ta'kidlanadi. UNESCO ta'limning uzluksizligi va bolaning rivojlanish huquqini fundamental qadriyat sifatida belgilagan bo'lsa [7], World Health Organization ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asoslaydi [8]. Yevropa tajribasida esa Hospital Organisation of Pedagogues in Europe gospital ta'limni aynan **pedagogik, psixologik va tibbiy komponentlar integratsiyasiga asoslangan multiditsiplinar faoliyat** sifatida talqin etadi [4].

O'zbekistonda gospital ta'lim masalasi hozircha mustaqil va to'liq shakllangan pedagogik tizim darajasiga ko'tarilmagan bo'lsa-da, u ta'limning uzluksizligini ta'minlash, bolaning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish doirasida bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Mamlakatda ta'lim olish huquqi umumiy normativ-huquqiy hujjatlar orqali kafolatlangan bo'lib, uzoq muddat davolanishi sababli ta'lim jarayonida uzilish yuzaga kelgan bolalarni qo'llab-quvvatlash masalasi bugungi kunda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrlilik maktabi" davlat ta'lim muassasasida amalga oshirilmoqda [9]. Amaliy jihatdan qaralganda, "Mehrlilik maktabi"da onkologik va gematologik kasallikga chalinib uzoq muddat davolanayotgan bolalar bilan ishlashda pedagogik faoliyat bolaning asosiy maktab dasturidan orqada qolib ketmasligini ta'minlash emas, balki, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, emotsional barqarorlikni tiklash bilan tizimli ravishda integratsiyalashgan holda pedagogik faoliyat amalga oshirilmoqda. Natijada ta'lim jarayoni ko'proq akademik komponent bilan cheklanib qolmasdan, gospital pedagogikaga xos bo'lgan multiditsiplinar yondashuv to'liq amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yuqoridagi xalqaro yondashuvlar bilan qiyoslaganda, O'zbekistonda gospital ta'lim bugungi qiyofasi UNESCO tomonidan ilgari surilgan ta'limning uzluksizligi va insonparvarligi, World Health Organization tomonidan asoslangan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari integratsiyasi hamda Yevropa tajribasida Hospital Organisation of Pedagogues in Europe ta'riflagan multiditsiplinar gospital pedagogika modeli darajasiga yetish arafasida desak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq, pedagog, shifokor va psixolog o'rtasidagi hamkorlik ko'proq epizodik va tashabbusga asoslangan bo'lib, uni normativ va metodik jihatdan yetarlicha mustahkamlash kun tartibidagi asosiy masala bo'lib qolmoqda.

Shu tarzda, gospital ta'lim kontekstida integrativ yondashuv asosida ta'lim samaradorligini ta'minlashning pedagogik-psixologik omillari – bu ta'lim mazmunining moslashuvi, individual yondashuv, emotsional-psixologik qo'llab-quvvatlash, motivatsiyani saqlash va multiditsiplinar hamkorlikning yagona tizimda ishlashidir. Bu omillar uyg'unlashgandagina gospital ta'lim bolaning

akademik rivoji bilan bir qatorda uning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy reintegratsiyasini ham samarali ta'minlay oladi.

Yuqoridagi nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, hospital ta'lim sharoitida ta'lim samaradorligini ta'minlash an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan cheklanib qolmaydi. Integrativ yondashuv pedagogik, psixologik va tibbiy omillarni yagona tizimda uyg'unlashtirish orqali bolaning nafaqat akademik rivojlanishini, balki uning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini ham ta'minlash imkonini beradi. Hospital ta'limda ta'lim mazmunining moslashuvchanligi, individual yondashuv, rivojlantiruvchi baholash, emotsional-psixologik qo'llab-quvvatlash va motivatsiyani saqlash o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Multiditsiplinar hamkorlik – pedagog, psixolog, shifokor va ot-onalar o'rtasidagi uzluksiz hamkorlik esa integrativ yondashuvning amaliy samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu omillar yagona tizimda amalga oshirilgandagina hospital ta'lim bolaning akademik rivoji bilan bir qatorda uning ijtimoiy reintegratsiyasini ham muvaffaqiyatli ta'minlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bronfenbrenner, U. (1995). *The ecology of human development*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
2. Di Padova, M. Hospital pedagogy and the right to education. *Journal of Inclusive Education*. – 2022. – 14-son. 3-jild. – 45–59 betlar.
3. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. *Cambridge Journal of Education*. – 2011. – 41-son, 4-jild. – 451–465 betlar.
4. Hospital Organisation of Pedagogues in Europe (HOPE). *Charter for the Education of Hospitalised Children*. – Brussels. – 2020.
5. Shaw, S. R., & McCabe, P. C. (2008). Hospital-to-school transition for children with chronic illness. *School Psychology Review*. – 2008. – 37-son, 3-jild. – 349–364 betlar.
6. Thies, K. M. (1999). Identifying the educational implications of chronic illness. *Journal of School Health*. – 1999. – 69-son, 10-jild. – 392–397 betlar.
7. UNESCO. *A guide for ensuring inclusion and equity in education*. – Paris. – 2017.
8. World Health Organization (WHO). *Guideline on school health services*. – Geneva. – 2019. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagi "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 234-sonli qarori.